

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvining
2024-yil “27” may dagi
113 - sonli qaroriga

1- ILOVA

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “6” avgust da
29 - son bilan

“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Kuzatuv kengashining
2024-yil “05” iyun dagi
14 - sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”



“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Emissiya siyosati

(Yangi tahrirda)

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME’YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Emissiya siyosati

I. Umumiy qoidalar

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Emissiya siyosati (keyingi o‘rinlarda – “Siyosat”) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda 5992-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyundagi 3252-tonli “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi nizom hamda boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning emissiya siyosati (qimmatli qog‘ozlarni chiqarish)ni tartibga soladi.

2. Mazkur Siyosat “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – “bank”) tomonidan belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish tartibini hamda maqsadini belgilaydi.

3. Qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali bank o‘z va qo‘sishimcha kapitalini shakllantiradi. Aksiya chiqarish orqali bankning o‘z kapitali, obligatsiya, depozit va omonat sertifikati kabi qimmatli qog‘ozlar chiqarishi orqali bankning qo‘sishimcha kapitali shakllantiriladi.

Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

emittent – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog‘ozlarning egalari oldida majburiyatları bo‘lgan yuridik shaxs;

emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar – bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgililar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar;

qimmatli qog‘ozlar emissiyasi – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish;

aksiya – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtiroy etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

obligatsiya – emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat’iy belgilangan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi;

birja obligatsiyasi – chiqarilishi fond birjasi tomonidan ro‘yxatga olinadigan va fond birjasining kotirovkalash varag‘iga kiritilgan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan qarz emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

korporativ obligatsiya – aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan va qo‘sishimcha mas’uliyatli jamiyatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;

infratuzilma obligatsiyalari – ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul

mablag‘larini jalb etish maqsadida xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;

xalqaro obligatsiya – sotiladigan emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u emitent tomonidan chiqariladi va moliyaviy tashkilotlarning guruhi tomonidan joylashtiriladi, emitentning mamlakatidan tashqari bir yoki undan ko‘proq davlatda taklif etiladi, birlamchi ravishda (shu jumladan obuna bo‘yicha) faqat ushbu guruh orqali sotib olinadi;

depozit sertifikati – bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqllovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergen bankdan yoki shu bankning istalgan hududiy tarmog‘idan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz;

qimmatli qog‘ozlarning hosilalari – o‘z egalarining boshqa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsonlar, qimmatli qog‘ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar;

yopiq obuna – qimmatli qog‘ozlarni oldindan ma’lum bo‘lgan, soni cheklangan investorlar orasida ommaviy e’lon bermagan va reklama kampaniyasi o’tkazmagan holda joylashtirish;

ochiq obuna – qimmatli qog‘ozlarni soni cheklanmagan investorlar orasida reklamadan foydalangan holda joylashtirish;

birlamchi oshkora taklif (IPO) – fond birjasida aholiga va tadbirkorlik faoliyati subyektlariga aksiyalarni birlamchi oshkora taklif etish;

ikkilamchi oshkora taklif (SPO) – fond birjasida aholiga va tadbirkorlik faoliyati subyektlariga aksiyalarni ikkilamchi oshkora taklif etish tushuniladi;

uzoq muddatli emissiya strategiyasi – bank tomonidan uzoq muddatli passivlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddatli ya’ni muomala muddati 12 oydan ortiq bo‘lgan muddatga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqariladi;

qisqa muddatli emissiya strategiyasi – bank tomonidan qisqa passivlarni jalb qilish maqsadida qisqa muddatli ya’ni muomala muddati 12 oygacha bo‘lgan muddatga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqariladi.

II. Emissiya faoliyatining strategiyasi va maqsadlari

4. Emissiya (qimmatli qog‘ozlar chiqarish) faoliyatini amalga oshirishdan asosiy maqsad, qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish orqali bank kapitalini oshirish va aholi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish orqali o‘z depozit bazasini kengaytirish, bank passivlari ko‘lamini diversifikatsiya qilish hisoblanadi.

5. Emissiya siyosatining maqsadi emissiya amaliyotlarini bankning umumiylar strategik rivojlanishiga mos ravishda amalga oshirish bo‘yicha zarur sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘lib, ushbu maqsadga erishish uchun quyida keltirilgan emissiya strategiyalarini qo‘llashi mumkin:

Uzoq muddatli emissiya strategiyasi – bank tomonidan uzoq muddatli passivlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddatli ya’ni muomala muddati 12 oydan ortiq bo‘lgan muddatga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqariladi;

Qisqa muddatli emissiya strategiyasi – bank tomonidan qisqa passivlarni jalg qilish maqsadida qisqa muddatli ya’ni muomala muddati 12 oygacha bo‘lgan muddatga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqariladi;

Bank ustav kapitali – bank aksiyalarni chiqarish va sotish orqali o‘z ustav kapitali miqdorini shakllantiradi.

Kreditga va garovga olingan hamda boshqa jalg etilgan mablag‘lardan bank ustav kapitalini shakllantirishda hamda bank aksiyalarini sotib olishda foydalanish taqilanganadi.

6. Bank yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh pul mablag‘larini qisqa va uzoq muddatga jalg qilish maqsadida qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlarni belgilangan tartibda muomalaga chiqarishi mumkin.

7. Bankning ustav kapitali aksiyadorlar sotib olgan bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

Bankning ustav kapitali aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo‘sishimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

8. Qimmatli qog‘ozni muomalaga chiqarish bo‘yicha qaror qabul qilishdan oldin:
muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozdan asosiy maqsad;
qimmatli qog‘ozni xatarliligini tahlil qilish;
muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozni moliyaviy samaradorligini hisoblab chiqish;

muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog‘oz bilan bog‘liq bo‘lgan amaliyotni texnologiyasini ishlab chiqish;

muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozni bozorini o‘rganish va tahlil qilish ya’ni sarmoyadorlarni va ularning investitsiya dasturlarini, bozordagi mavjud talab va taklifni, bozorni segmentlab chiqib va bozor qay darajada to‘yinganligi kabi omillar o‘rganib chiqib tahlil qilinishi lozim.

9. Muomalaga chiqarilayotgan har qanday qimmatli qog‘oz turi bo‘yicha emissiya dasturi puxta va konservativ ishlab chiqilishi va mo‘tadil siyosat qo‘llanishi lozim.

Emissiya faoliyatini amalgalash oshirishi natijasida, bank nafaqat foya olish, balki bank aktivlari bilan birgalikda passivlarni ham ma’lum bir darajada diversifikatsiyalash orqali bankning likvidliligini ta’minlaydi.

10. Bankning emissiya siyosatining asosiy tamoyillaridan biri, muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozlarni diversifikasiya qilish orqali emissiya xatarini kamaytirish hisoblanadi.

Muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni diversifikasiya - xatarni oldini olish maqsadida muomalaga chiqarilgan turli moliyaviy instrumentlar va boshqa aktivlar bo‘yicha taqsimlanishi tushuniladi.

11. Bank muomalaga chiqarayotgan qimmatli qog‘ozlarini birlamchi bozorda nominal qiymatidan yuqori bo‘lgan narxda ya’ni bozor bahosida joylashtirishi natijasida daromad olishi mumkin.

Bank aksiyalarini birlamchi joylashtirishda bozor bahosida sotilishi natijasida ko‘rilgan emission daromadning hisobi qo‘sishimcha kapital sifatida bank kapitalining tegishli balans hisobvarag‘ida yuritiladi.

Ko‘p majburiyatini ifodalovchi bankning qimmatli qog‘ozlarini birlamchi bozorda nominal qiymatidan yuqori bo‘lgan narxda sotilishi natijasida ko‘rilgan daromad esa bankning tegishli daromad hisobvarag‘iga olib boriladi.

12. Bank aksiyalarini nominal qiymatidan yuqori bo‘lgan narxda joylashtirilishi natijasida ko‘rilgan emission daromad hisobidan manba tariqasida (ushbu mablag‘ni qaytarish muddati mavjud emasligi va bu mablag‘larga foiz to‘lanmasligi nuqtai nazaridan) bank quyidagilarni;

uzoq muddatli moliyaviy loyihalarni moliyalashtirish;

hukumat qarorlariga ko‘ra ma’lum bir tarmoqni yoki aholining ma’lum bir qatlamin ijtimoiy himoyalash maqsadida imtiyozli shartlarda ajratiladigan kredit loyihalarini moliyalashtirish;

bankning ko‘chmas mulkiga investitsiya qilish va bank faoliyati uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa loyihalarni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlar uchun ishlatsi mumkin.

III. Muomalaga chiqarilishi mumkin bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni turlari, ko‘rinishlari va muddatlari

13. Bank amaldagi qonunchilik va me’yoriy hujjatlar talablariga riosa qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi turdagি qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarishga haqlidir:

aksiya;

korporativ obligatsiya;

depozit va omonat sertifikati;

hosilaviy qimmatli qog‘ozlar;

infratuzilma obligatsiyalari;

xalqaro obligatsiya;

birja obligatsiyalari.

14. Bankning barcha qimmatli qog‘ozlari egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida va depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar shaklida hujjatsiz shaklda chiqariladi(xalqaro obligatsiyalar bundan mustasno).

15. Bank aksiyalarini ochiq yoki yopiq obuna vositasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtirishi mumkin.

16. Bankning ustav kapitalini qo‘sishimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan oshirish to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi hamda bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

17. Obligatsiya, xalqaro obligatsiya va veksellarni muomalaga chiqarish to‘g‘risidagi qaror bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Depozit va omonat sertifikati kabi qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish to‘g‘risidagi qaror bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

18. Muomalaga chiqarilayotgan har bir qimmatli qog‘oz turi bo‘yicha bank tomonidan amaldagi me’yoriy hujjatlar talablari doirasida, qimmatli qog‘ozlarni chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror va emissiya risolasi ishlab chiqiladi hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

19. Obligatsiya, birja obligatsiyasi, xalqaro obligatsiya va veksellarni muomalaga chiqarish to‘g‘risidagi qaror bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Depozit va omonat sertifikati kabi qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish to‘g‘risidagi qaror bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

20. Bank ustavida aksiyadorlar tomonidan sotib olingan aksiyalarning (joylashtirilgan aksiyalar) tiplari, soni va nominal qiymati belgilanadi.

21. Bank ustavida emitent joylashtirilgan aksiyalarga (e'lon qilingan aksiyalar) qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lган aksiyalarning soni, nominal qiymati va tiplari belgilanishi mumkin.

Bank ustavida ushbu Qoidalar mavjud bo'limganda, emitent qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas. Bankning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan oshirish to'g'risidagi qarorining qabul qilinishi faqat ustavga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini aniqlash yoki oshirish qismiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganidan keyin amalga oshirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar faqat bank ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasida joylashtirilishi mumkin.

22. Aksiyalarni qo'shimcha chiqarish faqat bankning ilgari joylashtirilgan barcha aksiyalari to'liq to'langandan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Aksiyalarni qo'shimcha chiqarish to'g'risidagi qaror faqat bank ustaviga kiritiladigan aksiyalarning oldingi chiqarilishi natijalariga ko'ra joylashtirilgan va e'lon qilingan aksiyalar sonining yangi miqdoriga nisbatan kiritilgan o'zgarishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin qabul qilinishi mumkin.

23. Korporativ obligatsiyalar bank tomonidan quyidagi shartlar asosida chiqariladi:

emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi, o'z kapitali miqdori doirasida;

so'nggi bir yilda rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lgan emitentlar tomonidan;

obligatsiyalar chiqarilishidan oldingi bir yil uchun moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi mavjud bo'lganda;

investorlarga tegishli mablag'larning emitentlar tomonidan to'lanishi bo'yicha to'lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqariladi.

24. Birja obligatsiyalari bank tomonidan quyidagi shartlar asosida chiqariladi:

birja obligatsiyalarining emissiyasi davlat ro'yxatidan o'tkazilmasdan va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda fond birjasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

to'lash muddati bir yildan ko'p bo'lмаган birja obligatsiyalarini joylashtirish va ularning muomalasi fond birjalarida amalga oshiriladi;

birja obligatsiyalarini joylashtirish faqat birja obligatsiyalarining chiqarilishini ro'yxatga olgan fond birjasi orqali amalga oshiriladi".

25. Har bir moliyaviy instrument xatarliligi, inflyatsiya hamda davlat siyosatini o'zgarishi va iqtisodiy konyukturaga qarab turli xil turdag'i xususiyatlarga ega bo'ladi. Emissiya qilinishi kutilayotgan qimmatli qog'ozlarga kutilayotgan daromadlilik darajasi, bankning soliq majburiyatları, xatar foizi, inflyatsiya xatari va kafolat talabnomasi kabi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi.

26. Bank tomonidan muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarni muomala muddati bevosita ularning daromadlilik darajasiga ta'sir etadi. Qimmatli qog'ozni muomala muddati qancha qisqa bo'lsa, mazkur qimmatli qog'ozga to'lanadigan daromad foizi yuqoriroq bo'ladi yoki aksincha

qimmatli qog'ozni muomala muddati qancha uzoq bo'lsa, mazkur qimmatli qog'ozga to'lanadigan daromad foizi kamroq bo'ladi.

IV. Qimmatli qog'ozlar emissiyasining bosqichlari

27. Bank tomonidan muomalaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlar emissiyasi, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish va tasdiqlash;

risolani tasdiqlash(qimmatli qog'ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda);

qimmatli qog'ozlar chiqarishni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

qimmatli qog'ozlar chiqarishni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida hisobga olish;

qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi axborotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor qilish;

chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlarni joylashtirish;

ro'yxatdan o'tkazuvchi organga qimmatli qog'ozlarni chiqarish natijalari to'g'risida bildirishnoma taqdim etish.

V. Qimmatli qog'ozlar likvidliligi va muomalada bo'lishini saqlab turish

28. Bank tomonidan muomalaga chiqarilayotgan har bir qimmatli qog'ozni likvidliliginin ta'minlab turishi lozim.

Likvidlilik deyilganida – bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozni qisqa muddat ichida tez va erkin sotilishi tushuniladi.

29. Bank muomalaga chiqarayotgan qimmatli qog'ozni (aksiyadan tashqari) likvidlilik darajasini ta'minlash maqsadida belgilangan tartibda qimmatli qog'ozni sarmoyador yoki mijozdan o'zaro kelishilgan holda so'ndirish muddatidan oldin qayta sotib olishi mumkin.

30. So'ndirish muddatidan oldin qayta sotib olingan qimmatli qog'ozlar bank tomonidan ikkilamchi savdo amaliyoti orqali qayta joylashtirilishi mumkin.

31. Bank muomalaga chiqarayotgan qimmatli qog'ozlarini likvidliliginin ta'minlash maqsadida amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda muomalaga chiqarayotgan qimmatli qog'ozlarini sug'ortalashi mumkin.

32. Bankning Emissiya siyosati amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelmagan taqdirda, ushbu siyosatda yuzaga kelgan kelishmovchilikni bartaraf etish maqsadida tegishli o'zgartirishlar kiritishi lozim.

33. Moliya bozori holatiga qarab qimmatli qog'oz bo'yicha o'rnatilgan real daromadlilik darajasi qimmatli qog'ozni jozibadorligiga hamda qimmatli qog'ozni bozor bahosini o'sishi kabi omillarga ta'sir ko'rsatadi.

VI. Qimmatli qog'ozlarning o'z vaqtida qoplanishi

34. Bank muomalaga chiqarayotgan qimmatli qog'ozlari bo'yicha yuzaga kelayotgan barcha majburiyatları bo'yicha belgilangan tartibda javob beradi.

35. Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog'oz bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan foiz va asosiy qarz majburiyatini to'liq to'lab berilishi shart.

36. Bank amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlari bo'yicha tegishli tartibda zaxira jamg'armalarini shakllantirishi mumkin.

VII. Yakuniy qoida

37. Mazkur hujjat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan amalga kiritiladi

38. Bank xodimlari ushbu Siyosat bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:

korruption harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

huquqbazarlik, jinoyat yoki manfaatlar to'qnashuvi alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda bank rahbariyatiga xabar beradi.

39. Mazkur Siyosat kuchga kirishi bilan bank Kuzatuv kengashining 2021-yil 29-yanvardagi 02-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan "ATB "Qishloq qurilish bank"ning Emissiya siyosati" (Yangi tahrirda) (ro'yxat raqami 187-son) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Kiritildi:

G'aznachilik departamenti direktori

A. Salixov

Kelishildi:

Komplayens nazorat departamenti direktori

J. Yusupov

Risk menejment departamenti direktori birinchi o'rnbosari

K. Karimov

Lingvist

A. Ravshanov

Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi boshlig'i

S. Raxmatullayev

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot va kommunikatsiyalar boshqarmasi
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi

2024-yil 29-mart

Toshkent shahri

155-son

2. Ichki me’yoriy hujjat
loyihasining turi:

Siyosat

2. Ichki me’yoriy hujjat
loyihasining nomi:

- “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Emissiya
siyosati

3. Lingvistik ekspertizani
o’tkazuvchi:

- **A.Ravshanov**

4. Lingvistik ekspertiza
o’tkazilgan sana:

- **2024-yil 29-mart**

5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi
662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihamini lingvistik
ekspertizadan o’tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo‘nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va
orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamalari to‘g‘ri qo‘llanilgan.

Ekspert:



(imzo)

A. Ravshanov

100060 Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy, tel/faks: +998(78) 150-93-39, yurist@brb.uz

2024-yil 16-aprel

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA № 50

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB G‘aznachilik departamenti tomonidan ishlab “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATBning Emissiya siyosati” (Yangi tahrirda) loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Mazkur ichki me’yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo‘lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqliqdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o‘tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadı.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i

S.Raxmatullayev